

UO‘K(UDC, УДК): 82.09.

ANTROPOSENTRIK O‘LCHOV VA UNING INGLIZ TILIDAGI TALQINI²¹

Shamuratova Muborak Muxtarovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: shamuratovamuborak2@gmail.com

ORCID ID: [0009-0002-2050-7071](https://orcid.org/0009-0002-2050-7071)

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
<p>Maqola antroposentrik o‘lchov birliklari va ularning ingliz tilida talqin qilinishini lingvistik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Antroposentrizm inson tafakkuri tomonidan yaratilgan dunyo manzarasining muhim va ajralmas xususiyati bo‘lib, u til orqali atrof-muhitni idrok etish va baholash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Antroposentrik o‘lchash usullari dastlab inson tanasi va uning imkoniyatlariga asoslangan bo‘lib, asosan masofa va hajmni aniqlashda qo‘llanilgan. Ushbu o‘lchovlar hozirgi kungacha til va madaniyatda faol saqlanib qolgan hamda ayrim hollarda vazni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, antropometrik ko‘rsatkichlar nafaqat makoniy o‘lchovlarni, balki vaqt, tezlik, harorat, sig‘im va hatto ritm kabi abstrakt tushunchalarni baholashda ham muhim rol o‘ynaydi. Kundalik tafakkurda miqdor ko‘pincha aniq hisoblash yoki o‘lchash orqali emas, balki “buyumlashgan” holda subyektiv tarzda baholanadi, bu esa til birliklarida o‘z aksini topadi. Maqolada kundalik nutqda miqdorning aniq o‘lchovdan ko‘ra subyektiv baholash asosida ifodalanishi masalasi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari antroposentrik yondashuvning tilshunoslikdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.</p>	<p>Antroposentrizm, talqin qilish, koinot, vaqt, o‘lcham, dunyoqarash.</p> <p>Received: January 26, 2026 Accepted: February 04, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

²¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Shamuratova M. Antroposentrik o‘lchov va uning ingliz tilidagi talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 239-250.

**АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ ИЗМЕРЕНИЯ
И ИХ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ****Шамуратова Муборак Мухтаровна**

Докторант (PhD),

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: shamuratovamuborak2@gmail.comORCID ID: [0009-0002-2050-7071](https://orcid.org/0009-0002-2050-7071)

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>Статья посвящена лингвистическому и когнитивному анализу антропоцентрических единиц измерения и их интерпретации в английском языке. Антропоцентризм является важной и неотъемлемой характеристикой картины мира, созданной человеческим мышлением, и ярко проявляется в процессе восприятия и оценки окружающей среды посредством языка. Антропоцентрические способы измерения первоначально основывались на человеческом теле и его возможностях и в основном использовались для определения расстояния и объёма. Эти единицы измерения до настоящего времени активно сохраняются в языке и культуре, в отдельных случаях применяясь также для выражения веса. Результаты исследования показывают, что антропометрические показатели играют важную роль не только в оценке пространственных измерений, но и при интерпретации таких абстрактных понятий, как время, скорость, температура, ёмкость и даже ритм. В повседневном мышлении количество чаще оценивается не путём точного подсчёта или измерения, а представляется в «овеществлённой» форме, субъективным образом, что находит отражение в языковых единицах. В статье также рассматривается вопрос о выражения количества в повседневной речи на основе субъективной оценки, а не точного измерения. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию значимости антропоцентрического подхода в лингвистике.</p>	<p>Антропоцентризм, интерпретация, мироздание, время, мера, картина мира.</p>

**ANTHROPOCENTRIC MEASUREMENT AND ITS INTERPRETATION
IN THE ENGLISH LANGUAGE****Shamuratova Muborak Mukhtarovna**PhD researcher of
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, UzbekistanE-mail: shamuratovamuborak2@gmail.comORCID ID: [0009-0002-2050-7071](https://orcid.org/0009-0002-2050-7071)**ABSTRACT**

The article is devoted to the linguistic and cognitive analysis of anthropocentric units of measurement and their interpretation in the English language. Anthropocentrism is an important and inseparable characteristic of the picture of the world created by human cognition, and it is clearly manifested in the process of perceiving and evaluating the surrounding environment through language. Anthropocentric methods of measurement were initially based on the human body and its capabilities and were mainly used to determine distance and volume. These measurements have remained actively preserved in language and culture up to the present day and, in some cases, are also used to express weight. The results of the study show that anthropometric indicators play an important role not only in the evaluation of spatial measurements but also in assessing abstract concepts such as time, speed, temperature, capacity, and even rhythm. In everyday cognition, quantity is often evaluated not through exact calculation or measurement, but rather in an “objectified” form, subjectively, which is reflected in linguistic units. The article also examines the issue of expressing quantity in everyday speech on the basis of subjective evaluation rather than precise measurement. The results of the study contribute to a deeper understanding of the significance of the anthropocentric approach in linguistics.

KEYWORDSAnthropocentrism,
interpretation, universe, time,
dimension, worldview.

KIRISH

Zamonaviy lingvistika antropotsentrik tamoyilni “til–inson” munosabatlari doirasida til hodisalarini talqin qilishga qaratilgan yondashuv sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv tilni inson omilidan ajratgan holda o‘rganish mumkin emasligini ta’kidlaydi va til tuzilishini uning egasi — insonning kognitiv, psixologik hamda madaniy xususiyatlari nuqtai nazaridan tushuntirishni taqozo etadi (Fedyayeva E. V., 2019, 396).

Insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon qo‘llanilgan antropotsentrik o‘lchovlar miqdor, makon va vaqtni baholashning dastlabki shakllaridan biri bo‘lib, ular ilmiy, standartlashtirilgan o‘lchash tizimlari bilan qiyoslanadi. Mazkur o‘lchovlar inson tanasi, sezgilari va amaliy tajribasiga asoslanganligi bilan ajralib turadi hamda ularni qo‘llagan xalqlarning o‘ziga xos dunyoqarashi va madaniy tafakkurini aks ettiradi. Ayniqsa, vaqt va makonni sanash hamda o‘lchash usullarida mazkur madaniy o‘ziga xosliklar yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson atrofdagi olamni idrok etish jarayonida landshaft qismlari va artefaktlarni inson tana qismlari nomlari bilan atab, borliqni antropomorfizatsiya qilgani kuzatiladi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, til haqidagi bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi turli ilmiy yondashuvlar doirasida amalga oshganini ko‘ramiz. *Ushbu jarayonni tavsiflashda “paradigma” tushunchasi muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Paradigma ilmiy qarashlar va tadqiqot usullarining almashinish jarayonini ifodalaydi* (Кубрякова Е. С., 1995, 144). Stepanov paradigmani muayyan davrda tilshunoslikda hukmron bo‘lgan fikrlash uslubi va ilmiy nuqtai nazar bilan bog‘laydi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslik an’anaviy ravishda uch asosiy paradigma doirasida tadqiq etiladi: qiyosiy paradigma (diaxronik-qiyosiy metodga asoslangan), strukturaviy paradigma (tilni ichki tuzilishi va birliklari tizimi sifatida o‘rganadi) hamda antropotsentrik paradigma. Antropotsentrik paradigma, Vorkachev ta’kidlaganidek, insonni yana “*barcha narsalarning o‘lchovi*” maqomiga qaytarib, uni koinot markaziga qo‘yadi (Воркачев С. Г., 2001, 72).

Inson atrofdagi obyektlarni, jumladan hayvonlar va mevalarni baholashda o‘z tanasining o‘lchamlarini mezon sifatida qabul qiladi (Вежбицкая А., 2001, 288). Masalan, olma qo‘lga sig‘masa, u katta deb baholanadi (Рахилина Е. В., 2000, 415); gilos esa og‘izga sig‘maydigan darajada bo‘lsa, gigantik sifatida talqin etiladi (Мостовая А. Д., 1989, 58). Bu holat miqdorning kundalik ongda aniq hisoblash emas, balki subyektiv baholash asosida idrok etilishini ko‘rsatadi.

Ilmiy bilishda miqdorlarni aniqlik bilan o‘lchash muhim bo‘lib, buning uchun maxsus asboblar va standartlashtirilgan birliklar qo‘llaniladi. Kundalik, amaliy tafakkurda esa aniq raqamlar emas, balki baholovchi ekvivalentlar ustunlik qiladi.

Shu bois kundalik ongda miqdor ko‘pincha hisoblanmaydi, balki baholanadi. Miqdoriy munosabatlar amaliy ong orqali psixologik idrok va subyektiv munosabat asosida o‘zlashtiriladi va quyidagi asosiy mexanizmlar orqali shakllanadi: obyektlarni o‘zaro taqqoslash va miqdoriy gradatsiya qilish; inson tanasi o‘lchamlari bilan solishtirish (masalan, *tizza bo‘yi bilan o‘t*), shuningdek, yelka, arshin, fut, dyuym kabi o‘lchov birliklaridan foydalanish; qo‘l ostidagi vositalar yordamida o‘lchash (*bir stakan shakar, bir chelak suv*); minimum va maksimum kabi chegaraviy nuqtalarni ajratish, chunki ular eng hissiy ranglangan va fazoviy chegaralarni belgilovchi birliklar hisoblanadi (Рябцева Н. К., 2005, 24).

Kognitiv tadqiqotlarning shakllanishi til inson ong faoliyatining ajralmas qismi ekanligini anglash bilan bog‘liq. Tilni uni yaratuvchi va undan foydalanuvchi subyektdan ajratgan holda o‘rganish mumkin emas. Til birliklari dunyo haqidagi bilimlar asosida motivatsiyalanadi va til nafaqat ushbu bilimlarni qayd etadi, balki ularni faol ravishda talqin ham qiladi. Bilimlarni konseptualashtirish va kategorizatsiyalash jarayonining markazida inson subyekti turadi, haqiqatning muayyan fragmentini talqin qilishda ishtirok etuvchi barcha bilimlar tizimi aynan shu tayanch nuqta asosida shakllanadi.

Zamonaviy til materiallarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, inson barmoqlaridan nafaqat sanash uchun yordamchi vosita sifatida, balki miqdoriy tushunchalarni idrok etish va ifodalashda ham faol foydalanadi. Ingliz tilida *a finger of* konstruksiyasi oz miqdorni bildiruvchi o‘lchov ma’nosiga ega. *Finger* leksemasi, shuningdek, subyektiv baholash va psixologik holatlarni metaforik qayta talqin qilish jarayonida noma’lum darajada kichik miqdorni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin:

That was really all that was left to say, but the finger of fear that she had been avoiding began to crawl up her spine now, too (Steel D., 2006).

Bu misolda *finger* leksemasi aniq o‘lchovni emas, balki sezilayotgan, ammo miqdoran noaniq bo‘lgan holatni baholovchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, son real dunyo obyektlarining fizik xususiyatlarini — ularning o‘lchami, og‘irligi yoki bir-biridan uzoqligini — tavsiflashga xizmat qiladi. Ilmiy bilim doirasida bu xususiyatlar aniq, invariant birliklar tizimi orqali ifodalanadi. Biroq aniq matematik miqdor shakllari bilan bir qatorda, kundalik tafakkurga xos bo‘lgan, sodda dunyoqarash asosida shakllangan “noilmiy” miqdor tushunchalari ham mavjud.

Bunday yondashuvning tarixiy ildizlarini IX asr oxiriga oid Norvegiyalik Ohthere sayohatining qadimgi ingliz tilidagi tavsifida ham kuzatish mumkin. Unda *elle* (tirsak so‘zidan kelib chiqqan birlik) kitlar, morjlar, arqonlar kabi obyektlarni o‘lchashda qo‘llanilgan (Fowler, 1973). Bu hol antropotsentrik o‘lchovlarning dastlab inson tanasiga asoslanganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy lingvistik materiallar tahlili ham inson tanasining boshqa qismlari miqdoriy g'oyalarni ifodalashda faol ishlatilishini tasdiqlaydi. Masalan:

- *Portable telephones barely bigger than your ear. (Qulog'ingizdan sal kattaroq ixcham telefonlar.)*
- *Brand-name letters the size of a human head. (Odam boshidek keladigan savdo belgisi harflari)*

Ushbu kontekstlar tananing muayyan qismlari hajmi haqidagi empirik bilimlarning qayta talqin qilinib, artefaktlar o'lchamini baholash uchun andoza sifatida qo'llanilishini ko'rsatadi. Natijada, inson boshi yoki qulog'i o'lchamiga asoslangan assotsiativ bilim modeli shakllanadi.

Body oti ham buyumning markaziy, asosiy qismini ifodalashda ishlatiladi:

- *The body of the cathedral is always crowded with tourists. (Soborning asosiy qismi doim sayyohlar bilan gavjum bo'ladi.)*
- *Leave three blank lines between the date and the body of the letter. (Sana va xatning asosiy qismi o'rtasida uchta bo'sh satr qoldiring.)* (Cambridge International Dictionary of English, 1995).

Inson tanasi bilan bog'liq leksemalar fazoviy yaqinlikni ifodalashda ham keng qo'llaniladi. Masalan:

- *to take / hold somebody in one's arms* — kimnidir mahkam quchoqlab ushlamoq;
- *a hair's breadth* — nihoyatda kichik masofa yoki miqdor.

Mazkur model bir qator barqaror birikmalarda ham aks etadi: *arm in arm, at hand, hand in hand, hand in glove, shoulder to shoulder, face to face, cheek to cheek, cheek by jowl, side by side, eyeball to eyeball*. Ushbu iboralar obyektlarning yoki shaxslarning bir-biriga fazoviy jihatdan juda yaqin joylashganini bildiradi.

Masofani ifodalashda *arm* leksemasi asosida shakllangan birliklar ham faol ishlatiladi, jumladan:

- *at arm's length* — obyektни tanadan iloji boricha uzoqda tutish.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, fazoda obyektlar yaqinligini ifodalovchi birliklar masofa yoki uzoqlikni bildiruvchi birliklarga nisbatan miqdoran ustunlik qiladi. Bu hol tahlil qilinayotgan leksemalarning antropotsentrik tabiati bilan izohlanadi va insonning atrof-muhitni avvalo o'z tanasi orqali idrok etishini tasdiqlaydi.

Obyektlar orasidagi masofa fazoda o'lchanishi mumkin. Ushbu kontekstda uchinchi muhim model shuni ko'rsatadiki, inson tanasining qismlari tilda obyektlarning uzunligi yoki balandligi hamda ikki nuqta orasidagi masofani o'lchash uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Bu tillarda mavjud bo'lgan eng qadimiy antroposentrik o'lchov modellardan biri hisoblanadi. Inson tanasi qismlari

Qadimgi Misr, Qadimgi Hindiston, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda uzunlik o'lchovlari sifatida keng qo'llangan.

Hozirgi zamon ingliz tilida bu funksiyani avvalo *foot (ft)* nomi bilan ataluvchi uzunlik birligi bajaradi, u 12 dyuymga yoki taxminan 30 santimetrغا teng:

- *The building is about two hundred feet high* — Bino taxminan ikki yuz fut balandlikda.
- *Mary was standing just a few feet away from me* — Merini men bilan bir necha fut masofada turardi (Mopozova H., 2015, 32).

Antroposentrik tamoyil ko'pincha fazoviy parametrlarni ongli idrok etishga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, dunyo yaratilishi ko'plab xalqlar mifologiyasida qismlari atrof-muhit elementlariga aylangan birinchi odamning qurbonligi sifatida tasvirlanadi. Bunday mifologik ssenariylarning eng mukammal namunalari qadimgi hind va german an'analarida saqlanib qolgan.

Masalan, qadimgi hind mifologiyasida ming boshli, ming ko'zli va ming oyoqli Purusha qurbonligi nafaqat tabiat, havo va shamolni, balki barcha hayvonlarni ham yuzaga keltirgan. Uning tanasining turli qismlari turli ijtimoiy tabaqalarni keltirib chiqargan: og'zidan brahmanlar (kohinlar), qo'ldan kshatriya (jangchilar), sonidan vayshya (dehqonlar), oyog'idan shudra (quyi tabaqa) paydo bo'lgan. She'riy vaznlar va marosim formulalari ham ushbu qurbonlikning natijasi sifatida qabul qilinadi (Jamison & Brereton, 2014, 44). Bu misollar tabiat va makon inson bilan uzviy bog'liq, jonli narsa sifatida idrok etilganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, Norvegiyaning Ohthere sayohatining anglo-sakson tavsifi inson mavjudligini ko'rsatadigan noaniq birliklar bilan birga standartlashtirilgan o'lchov birliklaridan foydalanishni ko'rsatadi. Masalan, dengizlarning kengligi uni kesib o'tish uchun zarur bo'lgan kunlar bilan ifodalanadi, qirg'oq bo'ylab masofa shamollarga qarab yelkanli kunlarda o'lchanadi, bo'g'ozning kengligi esa "no one will be able to see its shores" tarzida tavsiflanadi. Bundan tashqari, lotincha *milya* so'zi 1000 qadamni anglatadi.

Gamkrelidze va Ivanovning "Hind-yevropa tili va hind-yevropaliklar" asarida tana qismlari va landshaft elementlarini bog'lash orqali inson fazosini idrok etishdagi ilg'or antroposentrik yondashuv ko'rsatib o'tilgan. Ular ta'kidlaydiki, fazoni inson bilan namuna sifatida o'lchash — antroposentrik fazoviy idrokning asosiy mexanizmidir. Masalan, hind-yevropa *dh̥ g̑[h]om* o'zagi "yer" va "odam" ma'nolarini birlashtiradi: lotincha *humus* va *homo (hominis)*, litvacha *žēmė* va *žmuō*. (Gamkrelidze, T. V., Ivanov, V. V., 1995, 675)

Ko'rib chiqilgan misollar shuni ko'rsatadiki, til dunyoqarashi nafaqat og'zaki muloqot vositasi sifatida, balki insonlarning avlodlardan meros bo'lib qolgan bilimlari va e'tiqodlari bilan boyitilgan (Колесов, 2020, 160-162).

Shuningdek, antropotsentrik fazoviy idrok zamonaviy kognitiv talqinlarda ham mavjud. Masalan, shahar makonini inson tanasiga analogiya qilib tushuntirish mumkin: manba sohasi sifatida INSON; maqsad sohasi sifatida ATROF-MUHIT konseptual maydonlari faollashganda, “shahar markazi sifatida inson qalbi”ni idrok etish mumkin. Bu talqin shaharni “tirik organizm” sifatida tushunishga imkon yaratadi. Konseptual metafora bu yerda olam va u haqidagi bilimlarni talqin qilish vositasi sifatida ishlatiladi.

Vizual modellar fazoviy xususiyatlarni idrok etishda muhim rol o‘ynaydi, chunki inson cheksiz cheksizlikni anglay olmaydi: u faqat ko‘rinadigan ufqdagi narsaning bir qismini idrok etadi (Shmelev). Masalan:

The grounds sweep away from the house as far as the eye can see until they merge seamlessly into Ashridge Forest. (Uy oldidagi hudud ko‘z ilg‘amas chekkalarigacha yastanib, Ashridge o‘rmoni bilan bir butundek tutashib ketgan.)

Empirik tahlil shuni ko‘rsatadiki, fazoviy xususiyatlarni o‘lchashda eng qulay va universal vosita inson qo‘llaridir. Ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan “qo‘l uzatsa yetadigan masofada” iborasi ushbu antroposentrik o‘lchovlarni lingvistik madaniyatda qanday ifodalashni ko‘rsatadi:

He cared more about those two lads than he should. Years of being a prison officer had taught him about that. It was best to keep your distance. Hold the prisoners at arm’s length. (U bu ikki yigit haqida keragidan ortiq qayg‘urardi. Qamoqxona nazoratchisi bo‘lib ishlagan yillari unga bir narsani o‘rgatgan edi: masofani saqlagan ma‘qul. Mahbuslar bilan orani ochiq tutish kerak.)

Shu bilan birga, vaqt fenomeni ham antropotsentrik idrokgga tayanadi. Vaqt oraliqlari insonning jismoniy va hissiy holatlari bilan bog‘liq atamalarda ifodalanadi. Masalan:

- *There was a long pause, as by one who has just been hit in the solar plexus. (Quyosh chigaliga zarba yegan odamdek uzoq jimlik cho‘kdi.)*
- *Her friend was parking the car. He must have parked it in another county, because it was another half-hour before he showed up. (Dugonasining yigiti mashinani qo‘ygani ketgandi. U mashinani boshqa bir tumanga qo‘yib kelgan shekilli, negaki, paydo bo‘lgunicha yana yarim soat o‘tdi.)*
- *I couldn’t blame her – I can just about remember being that age, when an evening without one’s friends seemed to stretch to the length of a prison sentence. (Uni ayblay olmasdim – o‘zimning o‘sha yoshda bo‘lganimni arang eslayman: o‘shanda do‘stlarsiz o‘tgan bir oqshom qamoq jazosidek cho‘zilib ketardi.)*

Bu misollarda vaqtni baholash kognitiv jihatdan **yashirin referent vaziyat bilan taqqoslash** orqali amalga oshiriladi: pauza davomiyligi diafragmaning qisqa spazmi yoki shaxsiy tajribaga asoslangan his-tuyg‘ular orqali talqin qilinadi.

Qadimgi ingliz tilida inson tanasi qismlari uzunlik va masofa o'lchovlari sifatida ishlatilgan bo'lsa, zamonaviy til bu modellardan **metaforik, noaniq yoki bilvosita** tarzda foydalanadi. Shu tariqa, antropotsentrik talqinning asosiy xususiyati — inson tanasi va uning idroki orqali dunyo va vaqtni o'lchashdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, antroposentrik o'lchovlar inson tanasi, sezgilari va tajribasiga asoslangan holda miqdor, makon va vaqtni talqin qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular til tizimida nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy nutqda ham faol qo'llanilayotgan kognitiv mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Antroposentrik yondashuv tilni inson bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga imkon berib, funksional va madaniy jihatdan samarali lingvistik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atwood, M. *Cat's Eye*. – London: Virago Press, 2004. – 480 p.
2. Болдырев, Н. Н. Язык как интерпретирующий фактор познания // Интерпретация мира в языке: коллективная монография / под ред. Н. Н. Болдырева. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2017. – С. 19–81.
3. Bryson, B. *A Walk in the Woods: Rediscovering America on the Appalachian Trail*. – London: Black Swan, 1997. – 274 p.
4. *Cambridge International Dictionary of English*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – 1773 p.
5. Du Maurier, D. *Rebecca*. – London: Victor Gollancz Ltd., 1938. – 449 p.
6. Fedyaeva, E. V. *Anthropocentric Character of Number, Space and Time Language Interpretation // EpSBS European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. Proceedings of the Philological Readings (PhR 2019)*. – London, 2020. – P. 396–405.
7. Forsyth, F. *The Cobra*. – London: Corgi Books, 2010. – 448 p.
8. Gaiman, N. *American Gods*. – London: HarperCollins, 2001. – 465 p.
9. Gamkrelidze, T. V., Ivanov, V. V. *The Indo-European Language and the Indo-Europeans: A Reconstruction and Historical-Typological Analysis of a Proto-Language and a Proto-Culture*. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1995. – 1328 p.
10. Jamison, S. W., Brereton, J. P. *The Rigveda: The Earliest Religious Poetry of India*. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 1944 p.
11. Казачинина, А. В. К вопросу о репрезентации пространства (освоенного и неосвоенного человеком) в английской лексике // Функционально-

- когнитивный анализ языковых единиц и его аппликативный потенциал: материалы I Междунар. науч. конф. (5–7 окт. 2011 г.) / под ред. И. Ю. Колесова. – Барнаул: АлтГПА, 2012. – С. 160–162.
12. Кубрякова, Е. С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века (опыт парадигмального анализа) // Язык и наука конца XX века / под ред. Ю. С. Степанова. – М.: Российский гос. гуманитарный университет, 1995. – С. 144–238.
13. Matthews, C. *Calling Mrs Christmas*. – London: Sphere, 2013. – 432 p.
14. McEwan, I. *Saturday*. – London: Vintage Books, 2006. – 289 p.
15. Морозова, Н. Н. Выражение пространственных отношений в когнитивной семантике. – М.: Флинта, 2015. – 192 с.
16. Мостовая, А. Д. Лексическое значение и языковая интуиция // АН СССР. Серия литературы и языка. – 1989. – С. 52–58.
17. Moyes, J. *Silver Bay*. – London: Hodder & Stoughton, 2013. – 416 p.
18. Нагорная, Л. А. Антропоцентрические измерения и способы их репрезентации в английском языке // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2005. – № 4 (48). – С. 36–41.
19. Нагорная, Л. А. Способы выражения категории «мера» в английском языке в сопоставлении с русским. – Томск: Томский государственный педагогический университет, 2007. – 180 с.
20. Prichard, K. S. *Coonardoo*. – Sydney: Angus & Robertson, 1929. – 320 p.
21. Рахилина, Е. В. Когнитивный анализ предметных имен: семантика и сочетаемость. – М.: Русские словари, 2000. – 415 с.
22. Рябцева, Н. К. Язык и естественный интеллект. – М.: Academia, 2005. – 640 с.
23. Шмелев, А. Д. Русская языковая модель мира: материалы к словарю. – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 224 с.
24. Steel, D. *Dating Game*. – London: Corgi Books, 2004. – 432 p.
25. Steel, D. *The Ring*. – London: Time Warner Books, 2006. – 384 p.
26. Степанов, Ю. С. Язык и метод: к современной философии языка. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 784 с.
27. Вежбицкая, А. Понимание культур через посредство ключевых слов // Язык. Семиотика. Культура. Малая серия. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с.
28. Vonnegut, K. *Slaughterhouse-Five*. – New York: Delacorte Press, 1969. – 215 p.
29. Воркачев, С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – № 1. – С. 64–72.

30. Wodehouse, P. G. *The World of Blandings*. – London: Arrow Books, 2008. – 256 p.

31.

REFERENCE:

1. Atwood, M. (2004). *Cat's eye*. Virago Press.
2. Boldyrev, N. N. (2017). Language as an interpretive factor of cognition. In N. N. Boldyrev (Ed.), *Interpretation of the world in language* (pp. 19–81). Derzhavin Tambov State University Press.
3. Bryson, B. (1997). *A walk in the woods*. Black Swan.
4. *Cambridge international dictionary of English*. (1995). Cambridge University Press.
5. Du Maurier, D. (1938). *Rebecca*. Victor Gollancz.
6. Fedyaeva, E. V. (2019). Anthropocentric character of number, space, and time language interpretation. In *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences: Philological Readings (PhR 2019)* (pp. 396–405).
7. Forsyth, F. (2010). *The Cobra*. Corgi Books.
8. Gaiman, N. (2001). *American gods*. HarperCollins.
9. Gamkrelidze, T. V., & Ivanov, V. V. (1984). *The Indo-European language and the Indo-Europeans: A reconstruction and historical-typological analysis of proto-language and proto-culture*. Mouton de Gruyter.
10. Jamison, S. W., & Brereton, J. P. (2014). *The Rigveda: The earliest religious poetry of India*. Oxford University Press.
11. Kazachinina, A. V. (2012). On the representation of space (human-developed and undeveloped) in English vocabulary. In I. Yu. Kolesov (Ed.), *Functional-cognitive analysis of language units and its applicative potential* (pp. 160–162). Altai State Pedagogical Academy.
12. Kubryakova, E. S. (1995). Evolution of linguistic ideas in the second half of the twentieth century: A paradigmatic analysis. In Yu. S. Stepanov (Ed.), *Language and science at the end of the twentieth century* (pp. 144–238). Russian State University.

13. Matthews, C. (2013). *Calling Mrs Christmas*. Sphere.
14. McEwan, I. (2006). *Saturday*. Vintage Books.
15. Morozova, N. N. (2015). *Expression of spatial relations in cognitive semantics*.
16. Mostovaya, A. D. (1989). *Lexical meaning and linguistic intuition* (pp. 52–58). Academy of Sciences of the USSR.
17. Moyes, J. (2013). *Silver Bay*. Hodder.
18. Nagornaya, L. A. (2005). Anthropocentric dimensions and means of their representation in English. *TSPU Bulletin*, 4(48), 36–41.
19. Nagornaya, L. A. (2007). *Means of expressing the category of measure in English in comparison with Russian*.
20. Prichard, K. S. (1929). *Coonardoo*. Angus & Robertson.
21. Rakhilina, E. V. (2000). *Cognitive analysis of object names: Semantics and combinability*. Russian Dictionaries.
22. Ryabtseva, N. K. (2005). *Language and natural intelligence*. Academia.
23. Shmelev, A. D. (2002). *The Russian linguistic model of the world: Materials for a dictionary*.
24. Steel, D. (2004). *Dating game*. Corgi Books.
25. Steel, D. (2006). *The ring*. Time Warner Books.
26. Stepanov, Yu. S. (1998). *Language and method: Toward a modern philosophy of language*.
27. Wierzbicka, A. (2001). Understanding cultures through their key words. In *Language. Semiotics. Culture*. Languages of Slavic Culture.
28. Vonnegut, K. (1969). *Slaughterhouse-Five*. Delacorte Press.
29. Vorkachev, S. G. (2001). Linguoculturology, linguistic personality, and concept: The formation of an anthropocentric paradigm in linguistics. *Philological Sciences*, (1), 64–72.
30. Wodehouse, P. G. (2008). *The world of Blandings*. Arrow Books.